

## **Axborot olishga doir so‘rovlarni ko‘rib chiqish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatiga doir ma’lumotlarni olish bo‘yicha so‘rovlarni ko‘rib chiqish tartibi (Reglamenti)

Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatiga doir ma’lumotlarni olish bo‘yicha so‘rovlarni (bundan buyon matnda so‘rov deb yuritiladi) ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:  
**axborotdan foydalanuvchi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs;  
**so‘rov** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyati to‘g‘risida axborot taqdim etish haqida ushbu Agentlik va (yoki) uning mansabdar shaxslariga yo‘llanadigan og‘zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan elektron hujjat shaklidagi) talab;  
**axborot xizmati** - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi Axborot xizmati bo‘limi.
2. Axborotdan foydalanuvchilar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuning 5-moddasida nazarda tutilgan axborotni olish uchun bevosita yoki o‘z vakillari orqali so‘rov bilan murojaat etishlari mumkin.
3. Axborotdan foydalanuvchilarning so‘rovi asosida ma’lumotlar Agentlik tomonidan ushbu Reglamentga muvofiq, og‘zaki yoki yozma (shu jumladan elektron hujjat shaklida) taqdim etiladi.

### **II. So‘rovga qo‘yiladigan talablar**

4. Jismoniy shaxsning so‘rovida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.  
Yuridik shaxsning so‘rovida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan manzili (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan hamda so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.
5. Yozma so‘rovlarni axborotdan foydalanuvchining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. So‘rovni shaxsiy imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, u qo‘sishimcha ravishda tuzuvchining ham familiyasi, ismi, otasining ismi qo‘ylgan holda, uning imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Axborotdan foydalanuvchini identifikasiyalash imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilmagan so'rov anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

6. Og'zaki so'rov kiritayotgan jismoniy shaxs ushbu Reglamentning 4-bandni bиринчи xатбосида qayd etilgan ma'lumotlarni, shuningdek, o'z telefon raqamini ma'lum qilishi kerak.  
Yuridik shaxs nomidan og'zaki so'rov kiritayotgan mansabdor shaxs ushbu Reglamentning 4-bandni ikkinchi xатбосида qayd etilgan ma'lumotlarni, shuningdek lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi va ish telefon raqamini ma'lum qilishi kerak.  
Ushbu bandda qayd etilgan ma'lumotlar to'liq bayon etilmagan hollarda, og'zaki so'rovlarni ko'rib chiqish rad etilishi mumkin.
7. Elektron hujjat shaklidagi so'rovlari (bundan buyon matnda elektron so'rov deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq tayyorlangan va majburiy rekvizitlarga ega bo'lgan taqdirda ko'rib chiqiladi.
8. Belgilangan tartibda kiritilgan so'rov ko'rib chiqilishi shart.

### **III. Yozma va elektron so'rovlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish**

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligiga kiritilgan yozma va elektron so'rovlari kotibiyat tomonidan qabul qilinadi va ro'yxatga olinadi.

### **IV. Og'zaki so'rovni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish**

10. Agentlikda og'zaki so'rovlari axborot xizmati yoki kotibiyat tomonidan qabul qilinadi.  
Axborot xizmati xodimi yoki kotibiyat so'rov kiritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsdan ushbu Reglamentning 4-bandida qayd etilgan ma'lumotlarni to'liq olishi shart.

### **V. So'rovni ko'rib chiqish muddatlari va tartibi**

11. Axborotdan foydalanuvchining so'rovi Agentlikda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.
12. Ommaviy axborot vositasining axborot olishga doir, shuningdek Agentlik vakillarining intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.
13. So'rov rad etilgan taqdirda, belgilangan muddatda axborotdan foydalanuvchiga asoslantirilgan javob yuboriladi.